

3-6-ILOVA

1.	EMITENTNING NOMI								
	To'liq:			"Smart bank" aksiyadorlik jamiyati					
	Qisqartirilgan:			"Smart bank" AJ					
Birja tikerining nomi:*			-						
2.	ALOQA MA'LUMOTLARI								
	Joylashgan yeri:			Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Botir Zokirov ko'chasi, 2A uy					
	Pochta manzili:			100011, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Botir Zokirov ko'chasi, 2A uy					
	Elektron pochta manzili:*			office@smartbank.uz (mailto:office@smartbank.uz)					
Rasmiy veb-sayti:*			www.smartbank.uz (http://www.smartbank.uz)						
3.	MUHIM FAKT TO'G'RISIDA AXBOROT								
	Muhim faktning raqami:			06					
	Muhim faktning nomi:			Emitentning yuqori boshqaruv organi tomonidan qabul qilingan qarorlar					
	Umumiy yig'ilish turi:			Navbatdan tashqari					
	Umumiy yig'ilish o'tkazish sanasi:			11.12.2024 yil					
	Umumiy yig'ilish bayonnomasi tuzilgan sana:			11.12.2024 yil					
	Umumiy yig'ilish o'tkazilgan joy:			Toshkent shahri, Chilonzor tumani, 3-mavze, 74 uy					
	Umumiy yig'ilish kvorumi:			100					
	№	Ovoz berishga qo'yilgan masalalar		Ovoz berish yakunlari					
				yoqlash		qarshi		betaraflar	
%				soni	%	soni	%	soni	
1.	Qo'shimcha aksiyalar chiqarish to'g'risida.		100	350 000 000	0	0	0	0	
2.	Qo'shimcha aksiyalar chiqarish to'g'risidagi qaror va emissiya risolasini tasdiqlash to'g'risida.		100	350 000 000	0	0	0	0	
Umumiy yig'ilish tomonidan qabul qilingan qarorlarning to'liq bayoni:									
1.	<p>1. Bankning umumiy qiymati 150 000 000 000 (Bir yuz ellik milliard) so'mlik nominal qiymati 1 000 (Bir ming) so'm bo'lgan 150 000 000 (Bir yuz ellik million) dona qo'shimcha oddiy aksiyalari chiqarilsin.</p> <p>Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar soni cheklanmagan investorlar orasida ochiq obuna yo'li bilan 1 000 (Bir ming) so'mdan joylashtirilsin.</p> <p>Mazkur chiqarilishdagi aksiyalar ushbu chiqarilish davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab 30 kun ichida joylashtirilsin.</p> <p>Ushbu aksiyalar chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi xabar qonunchilikda belgilangan tartibda e'lon qilingan sanadan keyingi o'n beshinchi kuni joylashtirishni boshlanish sanasi hisoblansin. Agar aksiyalarni joylashtirishning boshlanish sanasi dam olish kuniga to'g'ri kelsa, bu holda aksiyalarni joylashtirishning boshlanish sanasi keyingi birinchi ish kuniga ko'chirilsin.</p> <p>Mazkur chiqarilishning oxirgi aksiyasi joylashtirilgan kuni joylashtirishni tugash sanasi hisoblansin, ushbu sana aksiyalar chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab 30 kundan oshmasligi lozim.</p>								

	<p>Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar “Toshkent” Respublika fond birjasida birja qoidalariga asosan bitimlar tuzish yo‘li bilan joylashtirilsin.</p> <p>Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarga to‘lov milliy valyutada pul mablag‘lari bilan “Toshkent” Respublika fond birjasida birja qoidalariga asosan amalga oshirilsin.</p> <p>Mazkur chiqarilish amalga oshmagan deb topilgan taqdirda, ushbu chiqarilishdagi aksiyalar to‘lovi uchun olingan mablag‘lar qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshmagan deb topilgan kundan boshlab, 5 kun ichida qaytarilsin.</p>
2.	“Smart bank” aksiyadorlik jamiyatining qo‘shimcha aksiyalar chiqarilishi to‘g‘risidagi qarori va emissiya risolasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3.	“Smart bank” aksiyadorlik jamiyati Boshqaruvi (A.To‘rayev)ga qo‘shimcha aksiyalar chiqarilishini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va joylashtirish bilan bog‘liq zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.
4.	Ushbu qarorning ijrosi yuzasidan nazorat “Smart bank” aksiyadorlik jamiyati Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilsin.

Ijroiya organi rahbarining F.I.SH.:

To‘rayev Azamat Shuxratovich

Bosh buxgalterning F.I.SH.:

Utamurotov Odil Toshpulotovich

Veb-saytda axborot joylashtirgan vakolatli shaxsning F.I.SH.:

Utamurotov Odil Toshpulotovich

* Mavjud bo‘lganda ko‘rsatiladi.

** Agar aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan imtiyozli aksiyalar egalari — aksiyadorlarning huquqlariga o‘zgartirishlar kiritish, aksiyadorlik jamiyatining ustav kapitalini ko‘paytirish bilan bog‘liq jamiyatning ustaviga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi masalalarni hal qilish bo‘yicha vakolatlarni kuzatuv kengashiga berish, e‘lon qilingan aksiyalar to‘g‘risidagi qoidalarni kiritish yoki ularga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, bitta aksiyadorga tegishli bo‘lgan aksiyalar soniga hamda ularning nominal qiymatining summasiga, shuningdek bitta aksiyadorga berilgan maksimal ovozlarni soniga cheklashni belgilash bilan bog‘liq bo‘lgan aksiyadorlik jamiyati ustaviga o‘zgartirish va (yoki) qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilingan bo‘lsa ustavga kiritilayotgan o‘zgartirish va (yoki) qo‘shimchalarning matni biriktiriladi.

*** Aksiyadorlik jamiyatining ijroiya organi, kuzatuv kengashi va taftish komissiyasi a‘zolari foydasiga haq va (yoki) kompensatsiyalar hisoblangan hollarda ko‘rsatiladi.

Muhim fakt yuz bergan vaqt bo‘lib, emitent oliy boshqaruv organining bayonnomasi tuzilgan sana hisoblanadi.